

BIR DOSTON ORQALI ZULFIYA XOTIRALARIGA NAZAR

O`rolova Dinora

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi

10-sinf o`quvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Zulfiyaning “Xotiram siniqlari” dostoni tahlil qilindi, unda Zulfiyaning asarni yozish mobaynida qalb iztiroblari, xotiralari yashiringan o`ylari, istiqbol tufayli ayta olgan dil so`zlari tahlilga tortildi. Qatag`on davrida gunohsiz insonlarga qilingan nohaqliklar, bir oila taqdiri doston misolida ochib berilgan.

KALIT SO`ZLAR: sadoqat, lirik doston, “Xotiram siniqlari”, portret, doston mazmuni, iste’dod.

Bo'ronsiz yurak-la o'lardim karaxt,

Bo'ronsiz tabiat ko'ki yashinsiz.

Nasib bo'lmaganda she'riyatday baxt,

*Qashshoq o'tar edim yiroq, yaqinsiz,*²⁹-deb bir umr kuylab o'tgan Zulfiyaxonim xalqimizda sadoqat va vafo timsoli, ijodkorga xos bo'lgan yuksak jasorat egasi, ibo va hayoda har jihatdan o'rnak bo'ladigan, pokiza e'tiqodi-yu zukko fikrlari bilan ko'pchilikni hayratga solgan buyuk bir siymo sifatida ardoqlanadi. Uning samimiy, jo'shqin, qalblarni junbushga keltiruvchi she'riyati nafaqat xalqimizning, balki boshqa millatlardagi adabiyot ixlosmandlarining qalbidan joy olgani ayni haqiqat. Atoqli shoir Abdulla Oripov esa shoira haqida: “Zulfiya opa deganda daf'atan ko'z oldimizda turfa chechaklar bilan ziynatlangan bir chamanzor namoyon bo'ladi. Bu gulzor go'zal she'riyatning muattar bo'ylari bilan orolangandir”³⁰,-deya eslaydi. Shoiraning “Bahor keldi seni so'roqlab”, “Gullar ochilganda”, “Ne baloga etding muftalo”, “Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh”, “Sensiz”, “Visol” kabi xijron turkumini tashkil etgan she'rlari uni o'ziga xos shoira sifatida elga tanitdi. Ayniqsa, uning hayoti so'ngida yozgan, Umarali Normatov tili bilan aytganda, “shoiraning umri nihoyasidagi, baqo bo'sag'asidagi qalb nidosi, munajoti” bo'lgan dostoni-“Xotiram siniqlari” shoira ijodini, uning hayot yo'llarini to'laligicha aks ettirgan adabiyot durdonasi bo'lib qoldi.

Zulfiya Isroilovanning murakkab hayot yo'llarini so'zlovchi lirik dostoni-“Xotiram siniqlari” o'quvchini bevosita ijodkorning davriga olib borib, u tuygan hissiyotlarni, turfa xil o'ylarni his qilishga yordam beradi. Bu asar shoira shaxsiy hayotiga daxldor fojia hodisa, 1937- yilgi Stalin qatag'oni, bu mudhish falokatning ijodkor o'sib ulg'aygan xonadonga bo'lgan ta'siri haqida hikoya qiladi. Dostonda nafaqat bir oila taqdiri, balki butun bir millatning og'ir kechmishi to'g'risida so'z boradi. Avvalo, asar nomiga e'tibor bersak, nima uchun aynan “Xotiram siniqlari”? Bu savolga javob qidirar ekanmiz,

²⁹ Zulfiya. “Bahor keldi seni so'roqlab”. “Bo'ron quchog'ida” she'ri. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016. – B. 142.

³⁰ “Zulfiya zamondoshlari xotirasiga”. Abdulla Oripov: “Ajoyib shoira opamiz.”-T.: “Akademnash”, 2015.-B. 103.

beixtiyor asar sarlavhasi haqida shoiraning shogirdi bo'lmish Qutlibeka Rahimboyevaning yozganlarini eslaymiz:

“— Bu dostonni nima deb ataymiz endi? — dedilar va o'zlari:

— Xotiram parchalari... — dedilar. Indamay qarab turgandim:

— Yo'q. Xotiram siniqlari... — dedilar...

Sarlavhadagi “siniq” so'zida jarohat ham bor, so'z juda joyiga tushgan edi.”³¹

Hurriyat, keldingmi - nahotki kelding,

Pinhona sog'indim, pinhona kutdim.

Yomg'irga bag'rini tutgan sahrodek —

*Sening nasimingga qalbimni tutdim.*³² – degan o'tli satrlar bilan boshlanuvchi doston shoira uchun qadrlı bo'lgan insonlarning: qatag'on qurboni-**Aka**, sabr va matonatli mushfiq **Ona**, bardoshli, alamdiya **Otaning** kechinmalari ular bilan birga yashagan, o'sha davrdagi voqea va hodisalarni boshidan o'tkazgan shoir tabiatli **Qizning** o'ylari, orzu-umidlarini o'ziga xos tarzda ochib beradi. Doston voqealari shoiraning bolaligidagi baxtli onlar, onasining “So'fi Olloyormi, devona Mashrab”dan o'qib berishlari, “qarog'ida mehr shaml ari yoniq” onasiga “gullagan o'rikday orasta otin”-deya bergan ta'riflari bilan boshlanadi. Biroq hovlisining ko'rki bo'lgan “Boychechak” va uning xalqi hademay qahratonda qoldi. “Sultonlikka loyiq kelbat, layoqat, sardorni yanglig' bardoshi bor” akasini “qora tun” o'rab olgani va qo'llariga kishan solgani mehribon singilning qalbiga katta jarohat yetkazadi. Bir akaning ayanchli taqdiri uchun singilning kuyinishi shunday bo'lsa, bechora ota va ona nimani his qilgan ekan? Dostonni o'qish davomida bu savolga ham o'rin qolmaydi.

... Buncha chidam qaydan - po'lat, olovdan,

Metindan yaralgan jonmidi otam... -deya otasining bardoshiga qoyil qolib so'zlaydi shoira va bu yerda otasining temirchi bo'lganiga ham ishora qiladi. Bu so'zlar bir vaqtning o'zida shunday ikki xil ma'no kasb etgani shoiraning yuksak mahoratidan darak beradi.

Qolganda azoblar iskanjasida,

Ota, bir ko'rmadik ko'zingizda yosh.

Yashab umidlarning pok sajdasi,

Hatto yovingizga otmadingiz tosh.

Va faqat dedingiz: «Soldim Xudoga»,

Zulfiya ushbu satrlarda Otaning xarakteri, uning portretini so'zlar orqali aniq va ravshan qilib chizadi. Yo'q, bu birgina shoiraning otasining tasviri emas, bu o'sha davrdagi o'zbek otalarining suratidir. Bu obrazda sabr va matonatga katta urg'u beriladi. Biroq birozdan so'ng shoira “Sibirning nur tushmas o'rmonlarida” norg'ul o'g'illarning qushday qirilganiga chidolmay isyon bilan xitob qilishga o'tadi. Hammasini indamay Xudoga solgan xalqiga qarata:

³¹Zulfiya zamondoshlari xotirasida. Qutlibeka Rahimboyeva: Sakson yil lovullab so'nmagani o't. - T.: Akademnashr, 2015.-B. 221.

³² Zulfiya. “Bahor keldi seni so'zlab”. “Xotiram siniqlari” doston. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2016.-B. 112.

...Sabr, qanoatdan yaralgan elim,

So'qir ham o'ziga so'qmoq izlar-ku! -deya hayqiradi. Andishali, sabrli xalqning soddaligidan foydalangan mustamlakachilarga nisbatan nafratini "Toji yo'q podshoday sezdimi o'zin"-degan satrlari bilan ifodalaydi. Shunday murojaatdan so'ng shoira o'z vijdoni va eli oldida o'zini so'roqqa tutadi. Atrofidagi muammolarga qarshi o'zi hech bir ish qilolmagani, yosh bo'lganini ayta turib:

Menmi? Men ishq otlig' bir jahon aro

She'r tinglab, she'r tizib - she'rlarda qoldim...

Behishtiy jaranglar - jonimga ora –

O'zimning baxtimda o'zim yo'qoldim.-deb o'zini gunohkor his qiladi. Biroq biz bu bilan shoirani ayblay olmaymiz. Chunki u o'zining baxti, sevgisi, she'riyati bilan ovora edi. Qalbi o'tli muhabbat bilan limmo-lim to'lgan yosh qizni atrofda bo'layotgan voqealardan ko'ra o'zining zavqli mashg'uloti bo'lgan shoirlik ko'proq qiziqtirganini, she'r ichra ko'milib ketganini o'quvchiga tushunarli tarzda izohlagan.

Biroq shunday baxt ichra yo'qolgan kunlardan birida yosh shoira yana bir og'ir musibat bilan yuzlashadi. Borini berib sevgani, suyakli yori Hamid Olimjondan ayriladi. "O'ttizga yetmayoq sochi qor yalagan" shoiraga qismat shunday og'ir judolikni ravo ko'radi. Bu voqea Zulfiyaning keyingi ijodiy faoliyatida asosiy mavzuga aylangani hech kimga sir emas.

Bo'ldi, bas! Jangdan so'ng horg'in sarkarda

Tirik askarlarin tizganday qator –

Men tirik hislarim bir joyga yig'dim

Va kuchli yashashga ayladim qaror.

Ushbu misralar esa shoiraning tengsiz jasoratini, uning yuragidagi kurashuvchanlikni, so'nmas shijoatni yorqin ifodalab bera olgan.

Dostonning keyingi qatorlariga o'tar ekanmiz, shoira endi millatning uyqudaligidan ilmsizligidan hayratlanib, Yaratganga murojaat qilishni boshlaydi:

«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni,

Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil. -deb afsus chekadi. Shoira bularning barini ilmsizlikka yo'yib "Ilm-u hikmatlarga yor edi millat." -deya xalqimizning tarixdagi ilm-u ma'rifatdagi yutuqlariga nazar tashlab oladi.

Qay biri vazminroq savobmi - gunoh,

Yashadim-ku riyo, haromdan nari.

Kuyganman. Bosh-oyoq kuyuk jismimning –

Nimasin yoqardi do'zax o'tlari...

Shoira o'zi haqida hisob berarkan savob va gunohlarini solishtirib o'tadi. Keyingi misralardan esa keskinlik va isyonkorlik boshlangan. Bu isyonkorlik Zulfiya ijodiga xos o'zgacha sifatlardan biridir. Erkin Vohidov ham shoira haqida bejizga: "O'ziga, she'riga

berahmlik Zulfiya iste'dodining xususiyatidir"³³-deb ta'kidlamagan. Ijodkorning odamlarga qarata aytgan so'nggi tilagi, vasiyati, iltimosi ham o'zgacha samimiy:

Jasadim daryoga tashlang, ruhim pok,

Obi rahmatlarda sovusin tanim...

Doston nihoyat erishilgan hurriyatga shukronalik tuyg'usi bilan tugatilgan. Uzoq yillar kutilgan bu erk shoir qalbida cheksiz quvonch uyg'otadi:

Hurriyat, kelding-ey, al-omon kelding,

Seni qalbim, ko'zim, so'zlarim quchar.

Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim,

Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...

Ruhim u yoqlarga qush bolib uchar..

Shunday qilib Zulfiyaning ushbu dostoni xalqimiz qalbidan chuqur joy oldi. O'zining ma'no va mazmunga to'la satrlari, muhit va davr haqidagi ham haqiqatga yo'g'rilgan, ham insonlarning hislarini junbushga keltiradigan o'zgacha misralari bilan o'zbek adabiyodiga salmoqli hissa qo'sha oldi. Bu haqida Umarali Normatov yozar ekan: "81 yoshlik uzoq umrni Alloh shoiraga shu dostonni yozib qoldirish uchun bergandek tuyuladi"³⁴-deb aytib o'tgan. Shoiraning nafaqat bu asari, balki butun ijod olami adabiyotimizda yorqin bir yulduzday ajralib turadi. Xullas, Erkin Vohidov ta'biri bilan aytganda, "Zulfiya singari siymolar xalqning baxti bo'lib yaraladilar. Bu baxt, avvalo, o'zbekniki, O'zbekistonniki, so'ngra esa dunyonikidir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya. "Bahor keldi seni so'roqlab" – T.: "Yangi asr avlodi", 2016.
2. "Zulfiya zamondoshlari xotirasida". - T.: "Akademnashr", 2015

³³ Zulfiya zamondoshlari xotirasida. Erkin Vohidov: "Shoiraning hayot qo'shig'i" -T.: "Akademnashr", 2015.-B. 101.

³⁴ Zulfiya zamondoshlari xotirasida. Erkin Vohidov: "Shoiraning hayot qo'shig'i" -T.: "Akademnashr", 2015.-B. 102.